

**INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM VA KASBIY  
TAYYORLASH ISLOHOTLARINING 2030 YILGACHA  
BO'LGAN MAQSADLARI**

*Rayxona Raxmonova Nabijon qizi*

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya;** Ushbu maqolada, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida berilgan inson kapitalini rivojlantirish maqsadlari va ushbu jarayonda Singapurning “Skills Future” tajribasini tatbiq etish masalalari yoritilgan. Ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimini modernizatsiya qilish, vaucher tuzimi orqali uzluksiz ta’limni (lifelong learning) rag‘batlantirish hamda mehnat bozorining raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlarini tahlil qiladi. Maqolada Singapur modelining O‘zbekiston milliy ta’lim tizimiga moslashuvchanlik xususiyatlari va kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari yoritib berilgan. Shuningdek “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining amalga oshirilishi hukumat tomonidan inson kapitali rivojlantirishda muhim qadamlar tashlandi, bu esa O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun etakchi kuch bo‘lib hizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** “O‘zbekiston – 2030” Singapurning, SkillsFuture, inson kapitali, kasbiy tayyorgarlik, uzluksiz ta’lim, voucher tizimi, iqtisodiy modernizatsiya, raqobatbardosh kadrlar.

Xalqimizning erkin va faravoni, qudratli Yangi Ozbekistonni barpo etish bo‘yicha hohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakillantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’milash maqsadida Yangi Ozbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida ortirilgan tajriba va jamoatchilik muhokomasi natijalari asosida ishlab chiqilgan va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi tasdiqlangan.<sup>1</sup>

Shu sababli Inson kapitali – iqtisodiy o‘shishning drayveri hisoblanib, inson kapitali deganda nafaqat bilim, balki insonning salomatligi, tajribasi va ko‘nikmalarining yig‘indisi tushuniladi. 2030-yilgacha bo‘lgan maqsadlarda ta’limga sarflanadigan xarajatlarni “iste‘mol” emas, balki kelajak uchun eng yuqori foyda keltiruvchi investitsiya sifatida ko‘rish tamoyili ilgari surilmoqda.

O‘zbekiston 2030 strategiyasini asosiy oldiga qo‘ygan maqsadilari, 2030-yilga kelib maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 100%ga yetkazish hamda O‘zbekistonning o‘rnini yuqori 50 talikka olib chiqish va oily ta’lim Universitetlarini

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portal <https://gov.uz>

kamida 10 tasini dunyoning nufuzli top-1000 taligiga kiritish bilan birga hozirgi vaqtda zamonaviy IT-texnologiyalarini egallab va 2030-yilgacha mamlakatda IT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazishni rejalashtirilgan bo'lib bu esa bevosita yoshlarni kasbiy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini ko'rsatadi. Bugungi kunda yangi O'zbekiston taraqqiyoti "ma'rifatli jamiyatni shakillantirish"ga asoslanadi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida ham "har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarinig ishtirokini 30 foizga yetkazish, maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish, maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, maktabgacha ta'lim tizimida budget mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlash, maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish, 2026-yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish, malakali o'qituvchilarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich 1 000 AQSH dollari ekvivalentiga yetkazish, maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimni va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish va oily ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish hamda "El-yurt umidi" jamgarmasi orqali erkin va ijodiy fikirlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o'qishga yoborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50 foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalariga o'qitish" kabi maqsad va vazifalar belgilangan.<sup>2</sup>

Zamonaviy dunyoda, ilm – fan, texnologiya va inovasiyalar mamlakatlarning rivojlanishida muxim rol o'ynaydi va bu jarayonda inson kapitalining axamiyati tobora ortib bormoqda. Shuning uchun, "O'zbekiston-2030" strategiyasini amalga oshirishning asosiy g'oyalaridan biri inson kapitalini rivojlantirish bo'lib, bu aholining ehti'yojlariga va xalqaro standartlarga to'liq mos keladigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimlarini yaratishni nazarda tutadi. Yoshlarning intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va yanada oshirish maqsadida xalqaro imtihonlarda yuqori ball olgan yoshlarimizni harajatlarini qoplab berish bo'yicha davlat xizmatlari yo'lga qo'yildi va yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish maqsadida 800 turdagi tanlovlar musobaqalar va o'yinlar o'tkazildi. Yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish hamda ularning yuqori daromadli sohalarida qulay ishlari uchun sharoitlar yaratish maqsadida <https://uzbekcordes.uz> platformasida AQSH ning COURSERA kompaniyasi kurslari tashkil etildi, natijada 215 mingdan ortiq yoshlar mazkur kurslarda qamrab olindi.<sup>3</sup>

<sup>2</sup> <https://journal.fdu.uz>

<sup>3</sup> Inson resursini rivojlantirish O'zbekiston-2030 strategiyasining ustuvor vazifasi  
<https://strategy.uz/index.php?news=1953>

Inson kapitali bo'yicha jahon bankining "Human Capital Index" va Jahon iqtisodiy forumining hisobotlariga ko'ra quyidagi davlatlar eng ilg'ori hisoblanadi.<sup>4</sup> Bularga Singapur, Finlyanda, Janubiy Koreya, Estoniya, Yaponiya kabilar kiradi. Hozirda oily ta'lim bilan qamrov 40% ga yetdi, 2030-yilgacha yana 10% lik o'sish uchun Singapurni tajribasidagi "Skills Future Credit" ya'ni xususiy sector investitsiyalarini jalb qilish lozim. Bu tizimni o'ziga xosligi shundaki, u ta'limni "diplom markazli" emas balki "ko'nikma markazli" qiladi. Ya'ni, Singapurda har bir fuqaroga 25 yoshdan boshlab 500 dollar berilishi – bu shunchaki yordam emas, balki insonning o'z kelajagi uchun ma'suliyatli bo'lishni o'rgatadi. Hamda texnologiyalar o'zgarayotgan asrda insonning ko'nikmalarini eskirib qolmasligini ta'minlashdir. Skills-Future bu singapurliklarga boshlang'ich nuqtalaridan qat'iy nazar, hayot davomida o'zlarining to'liq salohiyatini imkoniyatlarini taqdim etishga qaratilgan milliy harakat. Ushbu harakat orqali har bir shaxsning ko'nikmalari, ishtiyoqi va hissasi Singapurni rivojlangan iqtisodiyot va inklyuziv jamiyat sari rivojlantirishning keyingi bosqichiga olib chiqadi.

Skills-Future to'rtta asosiy yo'nalishini o'z ichiga oladi, bular quyidagilar:

1. Shaxslarga ta'lim, kasb-hunar va kasb-hunar sohalarida xabardor tanlov qilishda yordam berish.
2. Doimiy ravishda o'zgarib borayotgan sanoat ehtiyojlariga javob beradigan integratsiyalangan, yuqori sifatli ta'lim kadrlar tayyorlash tizimini ishlab chiqish.
3. Ish beruvchilarning e'tirofini oshirish, ko'nikma va mahoratiga asoslangan martaba rivojlanishini rag'batlantirish.
4. Hayot davomida o'rganishni qo'llab-quvvatlaydigan va nishonlaydigan madaniyatni rivojlantirish.<sup>5</sup>

Agar bu tajribani mamlakatimizga qo'lasak, hozirda bitiruvchilarning bilimli va ish beruvchilarning talaba o'rtasida uzulish mavjud. Bu model orqali o'quv kurslari bevosita bozor ehtiyojiga qarab shakillantiriladi bu esa ishsizlikni kamaytiradi. Vaucher tizimi ya'ni Skillis Future Credit mablag'i yo'qligi sababli sifatli kurslarda o'qiy olmayotgan chekka hududlardagi yoshlar uchun ham teng imkoniyat yaratiladi. Bu esa inson kapitalini sifatini oshiradi. Hamda texnologik va yuridik mutaxassislarining vaucherlar orqali qayta tayyorlash O'zbekistonning "Digital Uzbekistan" maqsadlariga ijobiy xizmatlarni amalga oshiradi. Endi bu modelni salbiy jihatlariga e'tibor qaratsak. O'zbekiston aholisi Singapurdan qariyb 6 barobar ko'p. Har bir fuqaroga 500 dollardan voucher berish davlat budjetini uchun juda og'ir yuk bo'lishi mumkin. Vaucher pulini olish uchun soxta o'quv markazlari ko'payib ketish mumkin. Sifatsiz ta'lim natijasida inson kapitalida o'sish bo'lmaydi, aksincha mablag'lar isrof bo'ladi.

<sup>4</sup> The World Bank 2024.the Human Capital Index.worldbank.org

<sup>5</sup> <https://www.mom.gov.sg>

Yuqoridagilarga asosan so'ngi xulosa, ushbu strategiyaning konseptual asoslarini va inson kapitalini rivojlantirishning normativ yo'nalishlarni qamrab oladi. Hamda bu strategiya shunchaki hujjat emas, balki aniq indikatorlar va muddatlarga (KPI) ega bo'lgan harakatlar dasturidir. Inson kapitalini rivojlantirish – mamlakatning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash va milliy qonunchilikni ilg'or xorijiy tajriba bilan uyg'unlashtirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ham yoshlarni kitobxonlik, ta'sviriy san'at, musiqa va umuman ijodiy faoliyatga undovchi yetarli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunday ekan, erkin, mustaqil va istiqbol sari intilgan jamiyat, vatan uchun fuqarolari uchun go'zallik timsoli. Uni go'zallashtirish va unga xizmat qilish uchun go'zallikni ijtimoiy hodisa, insonni ulug'laydigan ne'mat deb tushunadigan kishilar kerak. Ana shuning uchun go'zallik bilan odamlar tarbiyalanadi, nafosat ko'nglida gullagan inson o'z xalqi, vatani mustaqilligi, erki va istiqboli yo'lida bajonidil mehnat qiladi. Bu esa, har bir insonning asl salohiyatini namoyon qilish imkoniyatini yaratadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Lex.uz. Normativ-huquqiy hujjatlar bazasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni "O'zbekiston -2030 strategiyasi to'g'risida", 2023-yil asosiy manbalar.
3. Strategiya mazmuni va ustuvor yo'nalishlari bo'yicha rasmiy sharhlar. O'z. Res. Prezidenti matbuot xizmati.
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Strategiya bo'yicha tahliliy hisobotlar.
5. From Third World to First – Lee Kuan Yew. Singapurning rivojlanish modeli haqida eng muhim asar.
6. World Bank hisobotlari . Singapur iqtisodiy rivojlanishi va davlat boshqaruvi modeli.
7. Asian Development Bank. Osiya davlatlari, jumladan Singapur tajribasi bo'yicha tahlillar.
8. Singapore Government (gov.sg). rasmiy siyosat, urbanizatsiya va boshqaruv tajribasi.
9. Public Administration bo'yicha milliy maqolalar. Singapur modeli va davlat boshqaruvi samaradorligi.